



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

XUSUSIY BIRIKUVCHILI BIRIKMALAR (KOLLOKATSIYALAR TADQIQI)

Rahmonova Zamira Salohiddinovna

Samarqand viloyati Urgut tumani 90-maktab o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqola g'arb va rus tilshunosligida "collocation" (kollokatsiya) atamasi bilan ifodalanadigan xususiy birikuvchanlik birikmalarining tadqiqini yoritadi. Kollokatsiya nutqda statistik jihatdan tez-tez birga uchraydigan, an'anaviy va odatiy so'z birikmalari sifatida talqin etilib, frazeologiya va korpus lingvistikasi doirasida o'rganilishi ta'kidlanadi. Shuningdek, kollokatsiyalarning matn tahlili, leksikografiya, chet tillarni o'rgatish va mashina tarjimai sohalaridagi amaliy ahamiyati, shu bilan birga til me'yorlari va milliy xususiyatlardagi roli alohida urg'ulanadi.

Kalit so'zlar: kollokatsiya, collocation, so'z birikuvchanligi, xususiy birikuvchanlik, frazeologiya, korpus lingvistikasi.

ЧАСТНЫЕ КОНЪЮГИРОВАННЫЕ СОЕДИНЕНИЯ (ИССЛЕДОВАНИЕ СЛОВСОЧЕТАНИЙ)

Рахмонова Замира Салахиддиновна

Учитель школы № 90 Ургутского района Самаркандской области

Аннотация

В статье освещается исследование сочетаний частного спряжения, представленных в Западной и русской лингвистике термином "словосочетание" (словосочетание). Подчеркивается, что словосочетания интерпретируются как статистически часто встречающиеся в речи сочетания традиционной и обыденной лексики и изучаются в рамках фразеологии и корпусной лингвистики. Также подчеркивается практическое значение словосочетаний в области анализа текста, лексикографии, преподавания иностранных языков и машинного перевода, а также их роль в языковых нормах и национальных особенностях.

Ключевые слова: словосочетание, словосочетание, лексика, частная словосочетание, фразеология, корпусная лингвистика.

PRIVATE CONJUGATED COMBINATIONS (STUDY OF PHRASES)

Rakhmonova Zamira Salakhiddinovna

Teacher of School No. 90 in the Urgut District of the Samarkand Region

Abstract

The article highlights the study of private conjugation combinations, which are referred to as "phrase" (word combination) in Western and Russian linguistics. It is emphasized that phrases are interpreted as statistically frequent combinations of traditional and everyday vocabulary in speech and are studied within the framework of phraseology and corpus linguistics. The practical significance of phrases in the field of text analysis, lexicography, foreign language teaching, and machine translation is also emphasized, as well as their role in language norms and national characteristics.

Keywords: phrase, phraseology, vocabulary, private phrase, phraseology, corpus linguistics.

Kirish (Introduction). G'arb tilshunosligida so'z birikuvchanligi, sintagmatik munosabatlar hamda valentlik nazariyasi masalalarini muhokama qilishda *collocation* atamasi bilan ifodalanadigan so'z birikmalari haqida alohida to'xtalib o'tish zaruriyatini ta'kidlash lozim.

Xorijiy lingvistikada *collocation* deb ataluvchi til hodisasi asosan ikki yoʻnalish – frazeologiya va korpus lingvistikasi doirasida tadqiq etiladi.

“Ingliz tilini qiyosiy oʻrganishga asoslangan rus tilshunosligining tegishli sohalarida inglizcha *collocation* soʻzining ruscha muqobili hisoblanadigan *kollokatsiya* soʻzini qoʻllash ommalashgan”[1,2,3,4,5,6]. Kollokatsiya – nutq jarayonida statistik jihatdan birga uchrayishga yuqori moyillikka ega boʻlgan ikki yoki undan ortiq leksik birlikning birikmasidir. Masalan, rus tilida *ставитъ условия* (shartlarini qoʻymoq) birikmasi kollokatsiya sifatida baholanadi, chunki *ставитъ* feʼli anʼanaviy ravishda *условия* otiga bogʻlanib tanlanadi. *условия* oʻrniga *предложение* ishlatilganda esa *вноситъ* feʼli afzal koʻriladi[7], zero bu ot aksariyat kontekstlarda aynan “вносить” bilan kollokatsiya hosil qiladi. Oʻzbek tilida ham *shart qoʻymoq* birikmasi shunga oʻxshash kollokativ xususiyatga ega boʻlib, *shartlarini* oti koʻpincha *qoʻymoq* feʼli bilan birga qoʻllaniladi. Kollokatsiyalarning koʻpchiligi komponentlarning leksik-semantik mosligi va shakliy aloqadorligiga asoslanadi, bu esa ularni sintaktik va maʼnoviy jihatdan yaxlit birlik sifatida qarash imkonini beradi. Bunda birikmani tashkil etuvchi unsurlardan biri asosiy leksik maʼnoni belgilasa, ikkinchisi birinchisiga bogʻliq holda tanlanadi. Ushbu talqin kollokatsiyani frazeologik birikmalar kontseptsiyasiga sezilarli darajada yaqinlashtirib, hatto ular oʻrtasida sinonimik munosabatlar mavjudligini taʼkidlaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). “Shu bilan birga kollokatsiya atamasi sifatida maʼlum bir tilda soʻzlashuvchilar uchun anʼanaviy, odatiy soʻz birikmalari ham tushuniladi” [8,9] Bu yerda “anʼanaviy”, “odatiy” tushunchalari ostida soʻzlarning nutqda yonmayon uchrayishining statistik jihatdan yuqori ehtimolligi nazarda tutiladi. Ushbu talqin korpus lingvistikasiga xos boʻlib, u empirik statistik koʻrsatkichlar va kollokativ kuch baholariga asoslanishni talab etadi. Kollokatsiyaga nisbatan bunday keng yondashuv frazeologik birikmalardan tashqari frazaviy feʼllar (phrasal verbs) va idiomalar kabi konstruksiyalarni ham kollokatsiya doirasiga kiritadi. “Collocation” atamasining ilmiy yoʻnalishlarga qarab polisemantik xususiyatga ega boʻlishi termini boshqa tillarga tarjima qilishda maʼlum qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Zero, xorijiy lingvistikada ham *collocation* tushunchasi tadqiqotchi nuqtai nazariga bogʻliq holda turli semantik toʻldiruvlarga ega boʻlib, variativ talqinlarga yoʻl qoʻyadi.

1933-yilda G.Palmer *collocation* atamasiga dastlabki taʼriflardan birini taklif etgan: “boʻlinmaydigan bir butunlik sifatida oʻrganilishi lozim boʻlgan ikki yoki undan ortiq soʻzlarning ketma-ketligi, bunda ularni alohida-alohida ajratmaslik lozim”[10:5]. Djon Rupert Firs esa oʻz asarlarida kollokatsiyani birikma hosil qilgan umumiy maʼno komponentlarning individual maʼnolarini toʻliq qamrab ololmasligi bilan xarakterlaydi[11].

Djon Sinkler *collocation* strukturasi maʼno yuklovchi komponentlarga ajratib oʻrganadi. Ulardan birini *the node* (*halqa*), ikkinchisini *the collocate* (*kollokatsiya*) deb atab, kollokatsiya mexanizmida har ikkala unsur teng darajada muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi. Bundan tashqari, Sinclair *collocational span* kontseptsiyasini ham tadqiq etadi – bu semantik jihatdan murakkab bogʻlangan soʻzlar munosabatini qamrab oluvchi matn fragmentini ifodalaydi[12].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Dunyo tilshunosligida *collocation* kontseptsiyasining qamrovi va chegaralarini aniqlash masalasining murakkab va koʻp qirrali tabiati uning talqinidagi variativlikka olib kelmoqda. Kollokatsiyaga keng talqinda yondashuvchi tadqiqotchilar uning doirasiga frazeologik birliklar, idiomalar hamda ularga yaqin konstruksiyalarni ham integratsiya qilishni tarafdori boʻlishadi. Aksincha, tor talqindagi yondashuv uni faqat idiomalar bilan ekvivalent sifatida qoʻllashni taklif etib, shu maʼnoda cheklashni maqbul deb hisoblaydi. Kollokatsiyaga aniq va har tomonlama taʼrif ishlab chiqish, shuningdek, ular asosida ikki tilli lugʻatlar tuzish amaliy lingvistikaning jadal rivojlanishiga muhim hissa qoʻshadi va mashina tarjimasi jarayonidagi qiyinchiliklarni sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Avval ta'kidlanganidek, leksik birlik o'z semantikasini kontekstda – ya'ni kollokativ muhitda – to'liqroq va aniqroq ifodalay oladi. Ba'zi hollarda so'zning aniq ma'nosi nafaqat jumla doirasida, balki butun matn kontekstida namoyon bo'ladi. Bu zamonaviy jamiyatda ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarining yuqori sur'atda rivojlanishi sharoitida "dekontekstualizatsiya" (matndan ajratib olish) kabi kontseptsialarning paydo bo'lishida yaqqol aks etadi. Bunday ajratib olingan iboralar va birikmalar jamiyat a'zolari orasida keng ommalashib, mustaqil frazeologik birliklarga aylanishi mumkin. Masalan, "sevgi yosh tanlamaydi" iborasi A.S. Pushkinning "Yevgeniy Onegin" romanidan olingan bo'lib, asarda hozirgi kunda qabul qilingan ma'nosida qo'llanmagan:

“Любви все возрасты покорны; Но юным, девственным сердцам

Её поривы благотворны...[13:112]”. (Sevgi yosh tanlamaydi; Ammo yosh, bokira qalblarga Uning nafasi foydali).

Albatta, zamonaviy jurnalistikada so'z birikuvchanligining matn ichidagi xususiyatlari o'quvchi va tomoshabin diqqatini jalb qilish, ma'lum bir mavzuga qiziqish uyg'otish hamda media makonida shov-shuv ko'tarish maqsadida faol qo'llanilmoqda. Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi vasiylik kengashining sobiq raisi K. Allamjonovning bosma nashrlar haqidagi bayonotlari ("men so'nggi marta qachon gazeta o'qiganimni eslay olmayman", "televizor ham ko'rmayman") kontekstdan ajratib olinib, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamaga sabab bo'lganligi[14] ham bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

A.I.Smurnitskiy nuqtai nazariga ko'ra, so'zlarning birikuvchanlik xossasini kontekst va jonli nutq doirasida o'rganish ularning leksik-grammatik o'ziga xosliklarini aniq belgilashga muhim yordam beradi[15]. Masalan, *ushlamoq* fe'lining *sumka*, *piyola*, *ruchka* kabi otlar bilan birikkanida bir ma'no, *taksi* oti bilan birikkanida esa butunlay boshqa ma'no ifodalashi yuqoridagi qarashlarni amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Y.V.Yagunova va L.M.Pivovarovada tadqiqotlarida komponentlarning o'zaro taqozo qilish xususiyatiga asoslanib, quyidagi birikmalarni kollokatsiya sifatida baholash taklif etilmoqda: *Krishtianu (Ronald)*, *Alisher (Usmonov)*, *Useyn (Bolt)*, *(yurak) xuruji*, *qimmatli (qog'oz)*, *(issiqxona) effekti*, *(foydali) qazilmalar*, *cho'g'lanma (lampa)*, *kredit (portfeli)*, *Somon (yo'li)*, *(tennis) raketkasi*, *trotli (ekvivalenti)*, *funt (sterling)*, *huquqni (muhofaza qilish)*, *qurolli (kuchlar)*, *ish (haqi)*, *o'z (xohishiga ko'ra)*, *spirtli (ichimliklar)*, *quruq (meva)*, *suvosti (kemasi)*, *simfonik (orkestr)*, *opera (va balet)*, *Oliy (Majlis)*, *Qonunchilik (palatasi)*, *(havo) oqimi oqimi va boshqalar*[16]. Shubhasiz, ushbu birikmalarining bir qatori (masalan, *ish haqi*, *qurolli kuchlar*, *Somon yo'li* kabi) qo'shma nomlarga aylanishning o'tish bosqichidagi konstruksiyalar sifatida ham qaralishi mumkin. Zero, qo'shma leksik birliklarning katta qismi etimologik jihatdan dastlab erkin so'z birikmalari bo'lganligini ko'rsatadi.

Rus tilshunosligida so'zlarning tasodifiy emas, balki muntazam va statistik jihatdan yuqori ehtimollikka ega birikuvlari kollokatsiya sifatida alohida tasniflanadi. Kollokatsiyalarning qo'llanilish doirasi va auditoriyasiga ko'ra ularni ikki asosiy guruhga ajratib o'rganish mumkin:

a) umumtiliy kollokatsiyalar – butun til jamoasi uchun xos bo'lib, har qanday soha va janrdagi matnlarda uchraydigan birikmalar;

b) sohaviy (terminologik) kollokatsiyalar – faqat muayyan ilmiy, professional yoki submadaniy sohada qo'llaniladigan, tor doiradagi matnlarga xos birikmalar.

Yuqorida keltirilgan misollar orasida *cho'g'lanma lampa*, *huquqni muhofaza qilish*, *quruq meva*, *ish haqi*, *qurolli kuchlar* kabi birikmalar umumtiliy xususiyatga ega bo'lib, tilning keng qatlamlarida barqaror ishlatilsa *trotli ekvivalenti*, *tennis raketkasi*, *qizil kartochka*, *kredit portfeli* kabilar maxsus sohalarga (fizika, sport, iqtisodiyot) oid bo'lib, faqat shu soha matnlarida muntazam uchraydi. Tabiiyki, sohaviy kollokatsiyalar o'z yo'nalishi mutaxassislariga tanish va tushunarli bo'lsa, boshqa soha vakillari uchun ular notanish yoki noaniq bo'lib qolishi mumkin.

Kollokatsiyalar matnlar va nutqda komponentlarining statistik jihatdan tez-tez birga uchraydiganligi bilan frazeologik iboralarga yaqin bo'lishiga qaramay, bir qator muhim farqlarga ega: tarkibiy so'zlar o'zining asosiy leksik ma'nosida qo'llaniladi, sintaktik bog'lanish aniq seziladi hamda har bir komponent individual ravishda ma'no ifodalash qobiliyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kollokatsiyalar til noshirlari tomonidan xotirada saqlanishi va yodlanishi zarur bo'lganligi jihatidan frazeologik birliklarga xos xususiyatlarni namoyon etadi. Masalan, rus tilida *препревать трудности* (qiyinchiliklarga chidash) birikmasi me'yoriy kollokatsiya hisoblanib, til odatiga mos keladi. Biroq, mantiqiy jihatdan mumkin bo'lishiga qaramay, *препревать треновок* (*mashg'ulotlarga chidash*) birikmasi til me'yorlariga zid va qo'llanilmaydi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash kollokativ cheklovlar mavjud: *yuzidan nur yog'ilib turmoq* birikmasi stilistik va leksik jihatdan me'yoriy deb baholanadi. Ammo *yuz o'rniga salbiy konnotatsiyaga ega bashara, turq* so'zlarini qo'yish (masalan, "basharasidan nur yog'ilib turmoq") til me'yorini buzadi va qo'llanilmaydi.

L.N.Iordanskaya va I.A.Mel'chuk kollokatsiyalarni tavsiflash uchun *yarimfrazema* (polufrazema) atamasini taklif etganlar[17]. Bu yerda *yarim* prefiksi kollokatsiyaning to'liq idiomatik (frazeologik) ma'no hosil qilmasligini, ya'ni komponentlarning semantik mustaqilligini saqlab qolishini ta'kidlaydi.

Matn til birliklarining turli darajadagi (fonetik, morfologik, leksik, sintaktik) komponentlarining muayyan ierarxik tartibda ketma-ket tashkil etilgan tizim sifatida qaraladi. Shu sababli, ushbu tizimning quyi darajasidagi murakkab tarkibli kollokatsiyalar matnni har tomonlama tahlil qilishning muhim instrumentlaridan biri hisoblanadi. Matnning kollokativ asosda o'rganilishi lingvistikaning bir qator yo'nalishlari – nazariy va amaliy lingvistika, matnning avtomatik tahlili, korpus lingvistikasi va boshqalar uchun zaruriy shartdir.

Alohida ta'kidlash joizki, leksik birlik ma'nosini tadqiq etishda uning kollokativ xususiyatlarini chuqur bilish fleksiya hodisasi keng tarqalgan tillarda yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Agglyutinativ tillarda[1] morfemalar chegarasi aniq va ravshan bo'lsa, flektiv tillarda[18] asos va affiksalar orasidagi chegarani aniqlash sezilarli qiyinchilik tug'diradi. Ingliz va rus tillarida fleksiya mexanizmining dominatsiyasi ushbu tillarda so'zlarning leksik xarakteristikalarini o'rganish jarayonida kollokativ kontekstga asoslangan tadqiqotni muqarrar talab qiladi. Fe'ning lug'aviy semantikasini tahlil qilishda birikuvchanlik xossasiga alohida e'tibor berish zarurligi XX asrning birinchi yarmida ingliz va rus lingvistlari tomonidan ta'kidlanganligi ham tasodifiy emas.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). So'z birikuvchanligi qoidalar va turli birikma turlarining shakllanish qonuniyatlarida tilning milliy xususiyatlari hamda nutq madaniyati yaqqol aks etishi shubhasizdir. Shu bilan birga, til me'yorlaridagi eng murakkab va paradoksal jihatlar ham asosan so'z birikuvchanligi sohasiga taalluqlidir. Bu hodisa bir tomondan potensial lingvistik imkoniyatlarning aktual nutqda ro'yobga chiqishi, boshqa tomondan turli leksik-grammatik toifalarga mansub so'zlarning kollokativ birikishi hamda sinonimlarning semantik mosligi kabi ichki til omillari bilan izohlanadi. So'z birikuvchanligining nafaqat lisoniy (til ichki), balki ekstralingvistik (nolisoniy) omillarga ham bog'liqligi yuqoridagi qarashni tasdiqlaydi. Ushbu fenomenning ko'p qirrali va murakkab kontseptsiya sifatida chuqur tadqiq etilishi valentlik nazariyasi, distributsiya, matn lingvistikasi, bog'lovchi vositalar va shunga o'xshash tushunchalarning ham rivojlanishiga muhim turtki bo'ldi. So'z birikuvchanligi dastlab leksik birlik va uning lug'aviy semantikasini chuqurroq anglash maqsadida o'rganilgan bo'lsa, zamonaviy lingvistikada u asosan amaliy qirralari – xususan, leksikografiyadagi o'rni va chet tillarni o'rgatishdagi ahamiyati nuqtai nazaridan tadqiq etilmoqda. Bu yondashuv birikuvchanlikni leksikografik birlik va xorijiy til o'rganuvchilar uchun muhim resurs sifatida baholashda ham yaqqol namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Русский язык. - Москва: Русский язык, 1947. – 784 с.
2. Регина К.В., Тюрина Г.П., Широкова Л.И., Устойчивые сочетания русского языка. — Москва: Русский язык, 1978. – 296 с.
3. Мельчук И.А. Опыт теории лингвистических моделей «Смысл - Текст». - Москва: Прогресс, 1976. – 496 с.
4. Фразеологический подфонд машинного фонда русского языка. - Москва: 1990.
5. Борисова Е.Г. Коллокации. Что это такое и как их изучать? - Москва: 1996.
6. Борисова Е.Г. Слово в тексте. Словарь коллокаций (устойчивых сочетаний) русского языка. – Москва: 1996.
7. [https://ru.wikipedia.org/wiki/ Kollokatsiya \(lingvistika\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Kollokatsiya_(lingvistika))
8. McCarthy M. English Collocation in Use. How Words Work Together for Fluent and Natural English, 2005. – 509 p.
9. Стариченок В.Д. Большой лингвистический словарь, М.: Феникс, 2008. – 506 с.
10. Palmer.H.E. Second Interim Report on English Collocations, Kaitakusha, Japan, 1966. – P.5
11. Firth. J. P. Modes of Meaning, 1957. – P.192.
12. Sinclair. J. Collocation: A Progress Report, 1987.
13. Пушкин А.С., Евгений Онегин, - Москва: Эксмо. 2020. – С.112
14. <https://kun.uz/uz/19093463>
15. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва: Омен, 1998. – С.179.
16. Ягунова Е.В., Пивоварова Л.М. Природа коллокаций в русском языке. Опыт автоматического извлечения и классификации на материале новостных текстов // Сб. НТИ, Сер.2, №6. Москва, 2010
17. Иорданская Л. Н., Мельчук И. А. Смысл и сочетаемость в словаре / Под ред. Е. Н. Саввиной. М.: Языки славянских культур, 2007. - 672 с.
18. https://ru.wikipedia.org/wiki/Флективные_языки